

TOVLAMACHILIK VA FIRIBGARLIK JINOYATLARINING JINOIY-HUQUQIY TAVSIFI VA ULARNI FARQLASH MEZONLARI



Ulug'bek Irisbekov

yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Maqolada tovlamachilik va firibgarlik jinoyatlarining jinoiy-huquqiy tavsifi hamda ularni bir-biridan farqlash mezonlari tahlil qilinadi. Maqolada har ikkala jinoyat turining obyektiv va subyektiv tomonlari, jinoyat subyektlari va jinoiy harakatlarni amalga oshirish usullari o'rganiladi. Shuningdek, amaldagi qonunchilik va sud amaliyoti asosida tovlamachilik va firibgarlik o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: tovlamachilik, firibgarlik, jinoiy-huquqiy tavsif, huquqbuzarlik, subyektiv tomon, obyektiv tomon, kvalifikatsiya, jinoyat subyektlari, qonunchilik, sud amaliyoti.

УГОЛОВНО-ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПРЕСТУПЛЕНИЙ ВЫМОГАТЕЛЬСТВА И МОШЕННИЧЕСТВА, КРИТЕРИИ ИХ РАЗГРАНИЧЕНИЯ

Аннотация. В статье рассматривается уголовно-правовая характеристика преступлений вымогательства и мошенничества, а также критерии их разграничения. Исследуются объективные и субъективные стороны обоих видов преступлений, субъекты преступления и способы совершения противоправных действий. Кроме того, на основе действующего законодательства и судебной практики раскрываются сходства и различия между вымогательством и мошенничеством.

Ключевые слова: вымогательство, мошенничество, уголовно-правовая характеристика, правонарушение, субъективная сторона, объективная сторона, квалификация, субъекты преступления, законодательство, судебная практика.

CRIMINAL-LEGAL DESCRIPTION OF THE CRIMES OF EXTORTION AND FRAUD AND CRITERIA FOR THEIR DIFFERENTIATION

Abstract. The article analyzes the legal foundations of the institution of extradition for criminal prosecution or execution of a sentence. It examines the provisions of the Constitution, the Criminal and Criminal Procedure Codes of Uzbekistan, the Minsk and Chisinau Conventions, as well as the practice of bilateral treaties. The study highlights problems such as contradictions in legislation and the absence of a special extradition law. The author scientifically substantiates the need to harmonize national and international norms and puts forward practical recommendations for improving this institution.

Keywords: extradition, international legal cooperation, criminal procedure law, national legislation, human rights, Minsk Convention, Chisinau Convention, legal guarantees.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq barcha mulk shakllarining teng huquqliligi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi ta'minlanadi hamda unga nisbatan har qanday tajovuz qonun bilan ta'qib etiladi [1].

Dunyoda halol mehnatdan qoniqmaydigan, bironing haqqidan qo'rqmaydigan kimsalar tovlamachilik va firibgarlik yo'li bilan talon-toroj qilish natijasida ushbu turdagi jinoyatlar o'sishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev 2018-yil 27-iyul kuni jinoyatchilikning oldini olish, davlat idoralari va jamiyatning bu boradagi mas'uliyatini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida "bitta bo'lsa ham jinoyat bo'lgani hammamizni tashvishga solishi kerak" [2] deya ta'kidlagan edi.

Yangi O'zbekistonda tovlamachilik va firibgarlik jinoyatlarining oldini olish, ularni aniqlash, fosh etish hamda javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, qonunchilik tizimini tubdan isloh qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shu bois jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish maqsadida "Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish", "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "Milliy axborot maydonida qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash, axborotdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, ... milliy internet makonida kiberxavfsizlikni ta'minlash..." dolzarb vazifalar qilib belgilangan. Shu bois tovlamachilik va firibgarlikning oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va takomillashtirish, sohaga zamonaviy mexanizmlarni, ilg'or ish usullari va shakllarini joriy etish, mazkur yo'nalishda hamkorlikning samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Biz qiyosiy tahlil qilayotgan tovlamachilik bilan firibgarlik O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining "Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar" deb nomlangan bo'limning "O'zgalar mulkini talon-toroj qilish" nomli bobida[3] tegishli ketma-ketlikda berilgan. Bu ikki huquqbuzarlik bir-biriga sirtidan o'xshab ketadi. Ammo ular alohida jinoyat bo'lib, o'zining tarkibi, xususiyatlari va ijtimoiy xavfliligi bilan bir-biridan farq qiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 165-moddasidagi "tovlamachilik" tushunchasi o'zbek tilining izohli lug'atida: a) tovlamachi – kishilarni tovlab, laqillatib, qo'rqitib kun ko'ruvchi firibgar; b) tovlamachilik – aldash, laqillatish,

qo'rqitish yo'li bilan kishining mol-mulki, pulini olib qo'yish, undan foydalanish, firibgarlik; v) tovlamoq – aldab, laqillatib, qo'rqitib biror narsasini yoki pulini olmoq, yulmoq, anoyi qilmoq, firib bermoq degan ma'nolarda keladi [4].

Ko'rinib turibdiki, tovlamachida firibgar, tovlamachilikda firibgarlik, tovlamoqda firib bermoq so'zlari sinonim sifatida berilmoqda. Shuning uchun ham ijtimoiy hayotda tovlamachilikni aksariyat odamlar firibgarlik bilan bir xil jinoyat deb qarashadi, hatto huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari ichida ham shundaylarni ko'p uchratish mumkin. O'tkazilgan sotsiologik so'rovda ishtirok etganlar tomonidan tovlamachilik va firibgarlik bir xil tushunchalarmi? degan mazmundagi savolga ularning 54 foizi bir xil emas, 9 foizi o'xshash jihatlarga ega, 22 foizi ularni bir-biridan ajratish qiyin, 15 foizi bular sinonim tushunchalardir degan mazmundagi javoblarni berishgan.

Shuni alohida qayd etish joizki, qonun chiqaruvchi tovlamachilikni firibgarlikdan va boshqa o'xshash jinoyatlardan farq qiladigan hamda ulardan ijtimoiy xavfi yuqori bo'lgan alohida tarkibdagi jinoiy qilmish sifatida belgilagan. Qator tadqiqotlarda bugungi kunda huquqni qo'llash sohasida tovlamachilik va firibgarlik jinoyatlariga oid normalar qiyosiy tahlil qilingan hamda ular o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb vazifa ekanligini ilmiy asoslantirishga harakat qilingan [5].

Mavzuning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda ilmiy manbalar bilan uyg'unlikda tovlamachilik va firibgarlikka oid jinoyat qonunchiligidagi normalarni tizimli tahlil qilishga harakat qilamiz.

Tovlamachilikka O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 165-moddasida mazkur jinoiy qilmish tarkibini o'zida aks ettiruvchi obyektiv belgilar ko'rsatilgan holda tushuncha berilgan va javobgarlik nazarda tutilgan [6].

Mazkur modda uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi dispozitsiyasiga muvofiq tovlamachilik: a) jabrlanuvchi yoki uning yaqin

kishilariga zo'rlik ishlatish; b) mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish; v) jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitib: 1) o'zgan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni; 2) mulkiy manfaatlar berishni; 3) mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish; 4) jabrlanuvchini o'z mulki yoki mulkka bo'lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo'yish deb belgilangan. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tovlamachilik, birinchidan, zo'rlik ishlatish va qo'rqitish usullaridan birini yoki bir vaqtda har ikkisini ham qo'llagan, ikkinchidan, mulkiy manfaat olish yoki shunday manfaatni berishga majbur qiladigan holda sodir etiladi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda tovlamachiliklarning 42,5 foizi jabrlanuvchining shaxsiy hayot sirini oshkor qilish, 26,2 foizi ularning yaqinlariga ziyon yetkazish, 31,3 foizi mulkiga shikast yetkazish yo'li bilan qo'rqitish usulini qo'llash orqali sodir etilmoqda. O'rganilgan jinoyat ishlarining 15 foizida tovlamachilik sodir etilishida yuqoridagi usullar bir vaqtda ham qo'llanilgan.

Firibgarlikka O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasida mazkur jinoiy qilmish tarkibini o'zida aks ettiruvchi belgilar ko'rsatilgan holda tushuncha berilgan va javobgarlik nazarda tutilgan. Mazkur modda to'rt qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi dispozitsiyasiga muvofiq firibgarlik: a) aldash; b) ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan: 1) o'zganing mulkini; 2) o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish deb belgilangan [7].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, firibgarlik, birinchidan, aldov yoki ishonchni suiiste'mol qilish usullaridan birini yoki bir vaqtda har ikkisini ham qo'llagan, ikkinchidan, mulkni yoki unga bo'lgan huquqni qo'lga kiritgan holda sodir etiladi.

Jinoyat kodeksining: a) 165-moddasi birinchi qismi sanksiyasida tovlamachilik uchun uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish; b) 168-moddasi birinchi qismida firibgarlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining ellik bara-

varidan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan [8].

Tahlildan ko'rinib turibdiki, tovlamachilik uchun: birinchidan, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazolarining muddati uch yildan besh yilgacha belgilangan, Jinoyat kodeksining 15-moddasiga muvofiq mazkur qilmish uncha og'ir bo'lmagan jinoyat hisoblanadi, ikkinchidan, yuqoridagi jazolarga muqobil jazo turlari qo'llanilishi nazarda tutilmagan.

Firibgarlik uchun: birinchidan, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish jazolarining muddati uch yilgacha belgilangan, Jinoyat kodeksining 15-moddasiga muvofiq mazkur qilmish ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat hisoblanadi, ikkinchidan, yuqoridagi jazolarga muqobil jazo sifatida bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari qo'llanishi nazarda tutilgan.

Tovlamachilikni malakalovchi (og'irlashtiruvchi) alohida belgilari 165-moddaning 2 va 3-qismlarida ko'rsatilgan bo'lib, unga muvofiq tegishli:

a) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan, ko'p miqdorda, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til birlashtirib sodir etilgan bo'lsa, besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish;

b) juda ko'p miqdorda, o'ta xavfli retsidivist tomonidan, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi ko'rsatilgan [9].

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, tovlamachilik Jinoyat kodeksining 15-moddasiga muvofiq mazkur moddaning: a) 2-qismida ko'rsatilgan holatlarda sodir etilganda og'ir; b) 3-qismida ko'rsatilgan holatlarda sodir etilganda o'ta og'ir jinoyat hisoblanadi [10].

Firibgarlikning malakalovchi (og'irlashtiruvchi) alohida belgilari 168-moddaning 2, 3 va 4-qismlarida ko'rsatilgan bo'lib, unga muvofiq:

a) ancha miqdorda bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi;

b) ko'p miqdorda takroran yoki xavfli retsivist tomonidan, xizmat mavqeidan foydalanib, axborot tizimidan, shu jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan to'rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud muayyan huquqdan mahrum etilgan holda besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish;

v) juda ko'p miqdorda o'ta xavfli retsivist tomonidan, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan bo'lsa, bazaviy hisoblash miqdorining to'rt yuz baravaridan olti yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki sakkiz yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi ko'rsatilgan [11].

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, firibgarlik Jinoyat kodeksining 15-moddasiga muvofiq mazkur moddaning: a) 2-qismida ko'rsatilgan holatlarda sodir etilganda uncha og'ir bo'lmagan jinoyat; b) 3 va 4-qismida ko'rsatilgan holatlarda sodir etilganda og'ir jinoyat hisoblanadi.

Mazkur jinoyatlarning og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilishi ularning alohida malakalovchi belgisi sifatida qonunda ko'rsatilgan. Tovlamachilik va firibgarlikning takroran yoki xavfli retsivist tomonidan, ko'p miqdorda, bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib, juda ko'p miqdorda, o'ta xavfli retsivist tomonidan, uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilishi og'irlashtiruvchi holatlar hisoblanib, bu ularning alohida malakalovchi belgisidir.

Shuni alohida qayd etish joizki, firibgarlikning ancha miqdorda, axborot tizimidan, shu jumladan, axborot texnologiyalari hamda xizmat mavqeidan

foydalanib sodir etilishi ham alohida malakalovchi belgisi sifatida og'irlashtiruvchi holatlar hisoblanadi.

Bundan tashqari, qonunda alohida malakalovchi belgi ko'rsatilgan og'irlashtiruvchi holatlarda: a) tovlamachilik sodir etilganligi uchun faqatgina eng og'ir jazo bo'lgan ozodlikdan mahrum etish; b) firibgarlik uchun esa ozodlikdan mahrum etishga muqobil jarima, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash, shuningdek, qo'shimcha jazo sifatida muayyan huquqdan mahrum etish ham nazarda tutilgan.

Shuningdek, tovlamachilik sodir etganlik uchun qonunda hech qanday alohida rag'batlantiruvchi norma mavjud emas, lekin firibgarlik uchun Jinoyat kodeksining 168-moddasi 5-qismiga muvofiq yetkazilgan moddiy zararining o'ni qoplangan taqdirda ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi.

Jinoyat kodeksining 2001-yilgacha bo'lgan tahririda tovlamachilik uchun mol-mulk musodara qilinib yoki musodara qilinmay uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan edi.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan xuddi shunday harakatlarning, ya'ni tovlamachilikning:

a) ikkinchi qismida: takroran yoki xavfli retsivist tomonidan; ko'p miqdorda; bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilganligi uchun mol-mulk musodara qilinib, besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan edi;

b) uchinchi qismida: juda ko'p miqdorda; o'ta xavfli retsivist tomonidan; uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko'zlab sodir etilganligi uchun mol-mulk musodara qilinib, o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan edi.

Mazkur moddaning dispozitsiyasi bugungi kunda ham xuddi yuqorida kyeltirilgan tahrirda bo'lib, sanksiya qismiga esa bir necha bor o'zgarishlar kiritildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi qonuniga muvofiq

Jinoyat kodeksining 43-moddasida belgilangan jazo tizimidan mol-mulkni musodara qilish tariqasidagi qo'shimcha jazoning chiqarilganligi munosabati bilan tovlamachilik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 165-moddaning barcha uchala qismidan ham mol-mulkni musodara qilish jazosi chiqarib tashlandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 10-avgustdagi O'RQ-389-sonli qonuniga muvofiq Jinoyat kodeksining 43-moddasida belgilangan jazo tizimiga ozodlikni cheklash jazosi kiritilganligi munosabati bilan tovlamachilik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 165-moddaning birinchi qismi sanksiyasi: "uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi" degan tahrirda o'zgartirildi.

Yuksak texnologiyalarga asoslangan insoniyat taraqqiyoti shuni ko'rsatmoqdaki, globallashuv jarayonida shaxs, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlariga tahdid va tajovuzlarning, jumladan, turli yangi usul va shakllarda sodir etilayotgan tovlamachilik va firibgarlikning ko'payishi, ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirgan, lekin jamiyatda o'z o'rnini topa olmayotgan yoshlar tomonidan kibermaydondan foydalangan holda uyushgan jinoiy tuzilmalar tarkibida sodir etilishini taqozo etuvchi omillar kuchayib bormoqda.

Bunday shaxslar jinoiy faoliyatining oldini olishda jinoyat qonunchiligining mazkur qilmishlar uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normalarining takomillashtirilishi muayyan darajada ularning barvaqt profilaktik ta'sir choralari sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, tovlamachilik va firibgarlik jinoyatlari mazmunan bir-biriga yaqin tuyulgani bilan, ular o'zining jinoiy-huquqiy tabiati, jinoyat tarkibi, ijtimoiy xavflilik darajasi, amalga oshirish usullari, jazo choralari va malakalovchi belgilari bilan aniq farqlanadigan mustaqil jinoiy qilmishlar sifatida qonunchilikda mustahkamlangan.

Tovlamachilikda zo'rlik ishlatish yoki qo'rqitish yo'li bilan shaxsdan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo'sindagi harakatlar sodir etishni talab holati ustuvor hisoblansa, firibgarlikda aldov va ishonchni suiiste'mol qilish orqali mulkni yoki mulkiy huquqlarni noqonuniy ravishda egallash asosiy alomat sifatida namoyon bo'ladi. Jinoyat kodeksida ular uchun belgilangan jazo choralarining mazmuni va og'irlik darajalari ham bu jinoyatlar o'rtasidagi huquqiy farqni yanada yaqqol namoyon qiladi.

Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng qo'llanilishi natijasida jinoyatlarning yangidan-yangi ko'rinishda sodir etilayotganligi, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir etilayotgan tovlamachilik va firibgarlik holatlari, ushbu sohada javobgarlik choralari tubdan qayta ko'rib chiqish va zamonaviy profilaktik mexanizmlarni joriy etish zarurligini taqozo etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, tovlamachilik va firibgarlikka oid jinoiy-huquqiy normalarni qiyosiy tahlil qilish, ularning o'zaro farqli jihatlarini aniqlash hamda ushbu jinoyatlar profilaktikasini kuchaytirishga doir huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish milliy huquq tizimining yanada rivojlanishi uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, tovlamachilik va firibgarlik jinoyatlarining bir-biriga o'xshash va bir-biridan farqli jihatlarini, shuningdek, ularning qaysi sohalarda, kimlarga nisbatan, qanday usullarda sodir etilishini, qolaversa, kelgusida qanday yo'nalishda bo'lishini bilish nafaqat mazkur jinoyatlarga qarshi kurashuvchi organlar xodimlarining, balki ushbu jinoiy qilmishlar qurboniga aylanayotgan aholi qatlamlarining ham xabardor bo'lishi ular orasida manzilli barvaqt viktimologik profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish va samarali amalga oshirishga hamda O'zbekiston Respublikasida huquqiy davlat va adolatli jamiyat barpo etishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan manbalar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 65-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2018-yil 27-iyul kuni jinoyatchilikning oldini olish, davlat idoralari va jamiyatning bu boradagi mas'uliyatini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida so'zlagan nutqi.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 1995. – 165,168-mm.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati // www.ziyouz.com kutubxonasi.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati // www.ziyouz.com kutubxonasi.
6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 1995. – 165-m.
7. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 1995. – 168-m.
8. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 1995. – 165,168-mm.
9. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 1995. – 165-m.
10. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 1995. – 15-m.
11. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 1995. – 168-m.

